

## GULXANIYNING “ZARBULMASAL”ASARI G‘OYAVIY MUNDARIJASI

**Qurbanova Sarvinoz Gulboyevna**

O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

E-mail: [sarvinozqurbanova.2002@gmail.com](mailto:sarvinozqurbanova.2002@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Gulxaniyning “Zarbulmasal”asariidagi obrazlar vositasida yoritilgan asosiy g‘oyaviy mazmun to‘g‘risida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Gulxaniy, Qo‘qon xonligi, qushlar obrazi, kinoyaviy talqinlar, hukmron tabaqalar.

## IDEOLOGICAL CONTENT OF GULKHANI’S WORK “ZARBULMASAL”

**Abstract:** The article talks about the main ideological content of Gulkhani ‘s work “Zarbulmasal” illuminated by means of images.

**Key words:** Gulkhani, Kokan Khanate, the image of birds, ironic interpretations, ruling classes.

Zarbulmasal asari kichik hajmli bo‘lishiga qaramay mazmuni keng qamrovli asarlardan sanaladi. Asarning mohiyatini obrazlar vositasida bayon qilingan jumlalar orqali anglash mumkin. Har bir asar tahlil qilinar ekan, albatta, o‘sha asar yozilgan davr, ijtimoiy muhit hamda siyosiy vaziyat ham o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir. Shu kungacha adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan Zarbulmasal asarining bosh g‘oyasi sifatida “Yolg‘iz Farg‘ona viloyatidagina emas, umuman Movarounnahrda vayronagarchilikning hukmronligini ko‘rsatish va uni fosh etish”<sup>83</sup>deya ko‘rsatib kelindi. Agarda asar adib yashagan davrga bog‘lab o‘rganilsa, asar orqali adibning nima demoqchi ekanligini haqqoniy tarzda ko‘rish mumkin bo‘ladi.

<sup>83</sup> Зохидов. В Узбек адабиёти тарихидан.-Т.: 1961.-Б.204.

Gulxaniy ushbu asarni yozishni boshlaganda Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligidagi siyosiy vaziyat beqaror edi. Qo‘qon xonligi uchun ancha vaqtan beri siyosiy jumboq bo‘lib borayotgan O‘ratepa masalasi yechimini topgach, Qo‘qon xonligidagi hukmdor toifalar o‘zlarini g‘olib sanab, Qo‘qon xonligini Buxoro amirligidan yuqori o‘rinda ko‘rayotgan davrlar edi. Buxoro va Qo‘qon xonliklari orasida joylashgan O‘ratepa bekligi doimo o‘z mustaqilligi uchun kurashardi, xonliklar esa muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bu viloyatni bo‘ysundirishni istardilar. Ko‘pincha Buxoro izmida bo‘lgan O‘ratepa qo‘rg‘oni Amir Umarxonning 1817-yilgi yurishlaridan birida ishg‘ol qilinadi. Asarda esa aynan shu davrdagi Qo‘qon-O‘ratepa-Buxoro o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlar, siyosiy inqirozli holatlar o‘z aksini topgan. ”Movarounnahr-Buxoroda amiral-mo‘minin Sayyid Muhammad Umarxon buzgan... Rabot, Pushog‘ar, Zomin, Bekobod, Xayrabod... ”deganda ham adib O‘ratepa bekligini nazarda tutgan.

Gulxaniy o‘zaro siyosiy mojarolarga qaramay, o‘z yurtining kengayishi va Qo‘qon xonligi yutuqlaridan faxrlangan holda obrazlaridagi o‘z tasvirlari orqali Umarxon davrida mamlakatning gullab-yashnaganligi, yangi shaharlar paydo bo‘lganligi, endi bu yerda boyqushlarga mos vayronalar yo‘qligini aytib o‘tadi. Buxoroni esa Ko‘rqush tilidan boshqacha tasvirlaydi va uning Umarxonning bir yurishi natijasida vayronaga aylanib qolganini aytadi. Shuningdek, Boyo‘g‘lining qizining qalini uchun so‘ragan ming chordevorni ham Buxoro hududidan topish mumkinligini aytib o‘tadi. Buxorodagi bitta tumandan ming buzuq chordevor emas, balki izlasa sakkiz devor bo‘lsa ham topiladi deydi. Asarda masala shu yo‘l bilan hal etiladi ham. Boyo‘g‘li tomonning roziligi bilan kuyov tomon qizning qaliniga to Urgutdan boshlab Yangiyo‘rg‘on, Rabot, Pushog‘ar, Eski Sabot, Mo‘g‘ul, Chakan, Firuz, Nishopur, Shahriston, Beshsaroy, Dehliyon, Itarchi, Mujun, Mang‘it, Kenagas, Yangiariq, G‘onchi, G‘azondarak, Xoja Tohir, Yaxdon, Qizili, Kurkat, Bekobod, Xayrobodga qadar cho‘zilgan vayrona joylarni solib beradi.

Barcha qushlar Yapaloqqushning mard va tantiligiga tan berib turgan bir vaqtida qiz tarafdagilar Xayrabod o‘rniga “Mug”ya’ni O‘ratepani berishlarini so‘raydi. O‘sha

davr muhitiga ahamiyat bersak ushbu gapdagi tag ma'noni ilg'ash qiyin bo'lmaydi. Ushbu vaziyatda kuyov tomondan bo'lgan Ko'rquish Mug‘, ya'ni, O'ratepa hokimi tovuqqa o'xshab qiliq chiqargani va xonga xiroj to'lamay qo'ygani, hozir ancha ayanchli holga tushib qolgani va "yana bir safarlik holi bor"ekanligini, Amir Umarxonning yana bir yurishiga chidolmasligini aytib, kech kuzgacha uni ham qizning mahriga olib berishni va'da qiladi.

Boyo'g'lining qiziga qalin berishda ishlatilgan mana shu ifodalar orqali asarning g'oyaviy yo'nalishi aniq aks etadi. Xonliklar o'rtasidagi ziddiyatli raqobatda Gulxaniy o'z yurtini yuqoriga qo'yib, raqobatchi tomonni kamsitib tasvirlaydi. Bundan kelib chiqadiki asarning bosh g'oyasi buzg'unchilikni tasvirlash emas, balki o'z yurtidagi o'zgarishlardan, yangiliklardan faxrlanish va vatanparlikni ulug'lash desak o'rinli bo'ladi. Ayrim tadqiqotlarda Gulxaniy asar orqali o'z xonligining buzg'unchiligini shunday qochirim va kinoyalar yordamida tasvirlagan deyiladi, biroq nima bo'lgan taqdirda ham uning o'sha davr muhiti odami ekanligini, o'z vatanini sevishini unutmaslik zarur.

Zarbulmasal asaridagi obrazlarning bir-birlari bilan munosabati, o'zaro munozaralar va suhbatlar yordamida asarning asosiy mazmuni yanada teran anglashiladi. Asardagi badiiy obrazlar o'z xarakter va tabiatiga mos ravishda 3 xil turdadir:

- 1.Qushlar obrazlari.
- 2.Hayvon-hasharot obrazlari.
- 3.Kishilar obrazlari.

Asardagi asosiy ahamiyatga ega obraz bu qushlar bo'lib, qolgan obrazlar, ya'ni, hayvon-hasharot va kishi obrazlari esa ularning bir-birlari bilan bo'lgan suhbatda keltirilgan turli xil naql va rivoyatlarda keltirib o'tiladi.

Gulxaniy asaridagi asosiy obrazlar o'zining biologik xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birga o'zida insonlarga xos tabiatni ham namoyon etadilar. Misol uchun, boyqushlarning buzuq chordevorga o'chligi, uyida sichqon suyagidan boshqa narsasi yo'qligi, kunduzi ko'rinmay yurishi va suvdan uzoqroq turishi ularning tabiiy

xususiyati bo‘lsa, odamlar kabi aloqaga kirishishi, sheva yordamida turli maqol, matal, masallar keltirishi va hikmat, rivoyatlarga asosan ish olib borishi odamlarga xos belgilarni namoyon qiladi. Bu esa obrazlar yordamida ularning hayotdagi prototiplarini tez anglash imkonini beradi. Qushlarning turi va tabiatiga xos belgilar asosida esa hayotdagi mavjud shaxsning individual xususiyatlari, fe’l-atvoriga ishoralar anglashiladi. Misol uchun, Ko‘rqushning ko‘zi ko‘rmasligi, Kordonning novchaligi, Kuykanakning gapga ustaligi, Boyqushning xasisligi kabilarda kinoya va qochirimlarni sezish mumkin.

Qushlarning turi va nomlari juda ham ko‘p. Yapaloqqush va Boyo‘g‘li qudalar sifatida, Ko‘rqush sovchi, Kuykanak-xizmatkor, kuyov Kulankir sulton, kelin esa Kunushbonu oyim deya nomlanishi Gulxaniyning tipiklashtirish mahoratini ko‘rsatadi. Qushlarni odamlarning o‘rniga ko‘chirish usuli ham o‘zgacha va tabiiyligi bilan ajralib turadi. Ota qush-Boyo‘g‘li, onasi esa-Boyqush, qizi-Boyqiz deb nomlangan. Yapaloqqush-Yapaloqbibi, uning o‘g‘li esa Kulongir sulton deyiladi.

Qushlarning bu tariqa nomlanishi uning tabiiyligini ta’minlaydi va asarga o‘zgacha ruh bag‘ishlaydi. Asarni o‘qiyotgan odam obrazlarning qushlar ekanligini ham unutadi va ularning suhbatini xuddi odamlarnikidek qabul qiladi. Asarning ayrim nashrlarida “Kuykanak”ni –Kuygung, ”Kunushbonu(Quyoshbonu)”ni-Gunashbonu singari buzib ko‘rsatganlarini ham ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, asarda Maymun, Teva(tuya), Bo‘taloq, Tulki, Sangpo‘sht(Toshbaqa), Chayon kabi hayvon-hasharot obrazlari, Xolvoqi misgar, Yodgor po‘stindo‘z, duradgor, Yahyoxo‘ja kotibdek kishi obrazlari ham keltirilgan. Asardagi har bir obraz orqali qaysidir jihatni yoritib berish ko‘zda tutilgan. Gulxaniy insondagi turli xil xislatlarni, davr muhitini va boshqa shu kabi jarayonlarni tasvirlashda majoziy tasvirlash usullardan, kinoya va qochirimlardan mahorat bilan foydalangan. Aslida asarda siyosiy vaziyatlar aks ettirilgan bo‘lsa-da, o‘quvchini zeriktirmaydi. Xalq og‘zaki ijodi bilan uzviy bog‘liqlik ham asarning yanada qiziqarli va tushunarli bo‘lishini ta’minlagan.

U feodal hukmdorlar va ularning laganbardorlarini, saroy ahlining yaramas kirdikorlarini majoz yo‘li bilan o‘tkir satira ostiga oladi. Chunki u mehnatkash

xalqning og‘ir, mashaqqatli hayotini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi, saroy bazmlari, keti uzilmas mayparastliklar xalqni talash hisobiga bo‘lishini payqadi va bunday salbiy ishlar uning ko‘zini ochdi. Natijada, unda saroy ahliga nisbatan nafrat hissi tobora oshib bordi. Ammo shoir sharoitga ko‘ra, hukmron doiralardan noroziligini va nafratini ochiq-oydin ifodalay olmas edi. Shuning uchun majoziy shakldagi “Zarbulmasal” asarini yozishga kirishdi. Asarda shoirning maqsadi, hayotga, uni o‘rab olgan muhitga, hokim tabaqalarga bo‘lgan munosabati to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda etilmay, balki hayvonlar, qushlar va shunga o‘xhash majoziy obrazlarning tasviri orqali ifodalandi. Shoir shu zaylda o‘zi yashagan zamon uchun aniq va xarakterli voqeа-hodisalarini, ularga o‘zining munosabatini, qarashlarini tasvirlaydi. Muallif o‘z masallarida majoziy obrazlar orqali o‘sha davrdagi hukmron sinf vakillarini fosh qiladi, mamlakatga xarobalik, xalqqa qashshoqlik keltirgan o‘zaro feodal urushlarga qarshi ommaning noroziligini ifodalaydi. Gulxaniy o‘z zamonasida sodir bo‘layotgan talon-tarajlik, xalqni qiynash, ortiqcha soliqlar solish kabi voqealarni ochiqdan-ochiq yoza olmas edi. U buni faqat ertak yo‘li bilan amalga oshirish mumkin ekanligini tushunadi. Shuning uchun Yapaloqqush va Boyo‘g‘lining bir-biriga quda bo‘lishi voqeasini keltiradi. Bu ikki quda to‘y bahonasi bilan mamlakatni xonavayron qiladi. Yozuvchi Ko‘rqush, Hudhud, Kulonkir sulton, Sho‘ranul, Malik Shohin va Kordonlarning bir- birlariga aytgan masallari, hikoyalari orqali asarning g‘oyaviy mazmunini ochadi. Yapaloqqush va Boyo‘g‘lilar yuqori tabaqa vakillari. Ularning xatti-harakatlari ochko‘z va qonxo‘r bo‘ri, aldamchi va shayton tulkilarga o‘xshaydi. Bularning o‘y-fikrlari, yurish-turishlari shumlik, shahar va qishloqlarning vayron bo‘lishi uchun bayramdir. Asarda Yapaloqqush bilan Boyo‘g‘lining quda-anda bo‘lishi, Yapaloqqushning o‘g‘li Kulonkirga Boyo‘g‘lining qizi Gunashbonuning olib berilishi sarguzashtlari majoziy, o‘tkir hajviya tarzida tasvirlanadi. Gulxaniy qushlarning o‘zaro murakkab munosabatlari asosida o‘z davri ijtimoiy hayotining tanqidiy manzarasini yaratadi. Asarning “Zarbulmasal” deya nomlanishiga sabab, unda yozuvchi xalq tilidagi maqol va masallarni tasvirlayotgan hayotiy voqealarga mutanosib ravishda zarblash usulida ish tutgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Зохидов. В Узбек адабиёти тарихидан. –Т.: 1961. 204-бет.
2. Siddiq S , Umarxon davri va Gulxaniy. //Mash’ala. 1934, 345 bet.
3. Muqimov R. R. Gulxaniyning hayoti va adabiy faoliyati: filol. fanlari nomzodi...diss. –Samarqand: 1948. – 142 bet.
4. Исҳоқов Ф. Гулҳаний "Зарбулмасал"нинг илмий-танқидий матни Т.: 1997

